

AMIR HAYDAR BOSHQARUV DAVRIDA AMIRLIK HAYOTI

Sultonova Kumush

Shahrisabz pedagogika instituti

Tayanch doktranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20445700>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Amir Haydarning siyosiy faoliyati, davlat boshqaruvidagi islohotlari hamda Buxoro amirligi taraqqiyotidagi o'рни tahlil qilinadi. Shuningdek, uning hukmronlik davridagi ichki va tashqi siyosat, madaniy-ma'rifiy jarayonlar hamda markaziy hokimiyatni mustahkamlash yo'lidagi sa'y-harakatlari yoritiladi. Maqolada tarixiy manbalar asosida Amir Haydarning davlat arbobi sifatidagi faoliyatiga baho berilgan.

Kalit so'zlar: Ko'ktosh, fath, parvonachi, tashqi siyosat, el-ulus, Qur'on, Sayyid, Qosim Xo'ja, muxolifat, O'ratepa.

ЖИЗНЬ ЭМИРАТА ВО ВРЕМЯ ПРАВЛЕНИЯ АМИРА ХАЙДАРА

Аннотация. В данной статье анализируется политическая деятельность Амира Хайдара, реформы в государственном управлении и его роль в развитии Бухарского эмирата. Также рассматриваются его внутренняя и внешняя политика, культурные и образовательные процессы, а также усилия по укреплению центральной власти во время его правления. В статье оценивается деятельность Амира Хайдара как государственного деятеля на основе исторических источников.

Ключевые слова: Кокташ, завоевание, пропеллер, внешняя политика, Эль-Улус, Коран, Сайид, Косим Ходжа, оппозиция, Уратена.

LIFE OF THE EMIRATE DURING THE REIGN OF AMIR HAYDAR

Abstract. This article analyzes the political activities of Amir Haydar, reforms in state administration, and his role in the development of the Bukhara Emirate. It also covers his domestic and foreign policies, cultural and educational processes, and efforts to strengthen central power during his reign. The article evaluates Amir Haydar's activities as a statesman based on historical sources.

Keywords: Koktash, conquest, propeller, foreign policy, el-ulus, Quran, Sayyid, Qosim Khoja, opposition, Uratena.

Kirish. XIX asr boshlarida Buxoro amirligi Markaziy Osiyodagi yirik siyosiy davlatlardan biri hisoblangan. Bu davrda mamlakatning siyosiy barqarorligini ta'minlash, markaziy hokimiyatni mustahkamlash hamda ichki nizolarni bartaraf etishda Amir Haydar muhim o'rin tutgan. U mang'itlar sulolasining nufuzli hukmdorlaridan biri sifatida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishga harakat qilgan.

Amir Haydar hukmronligi davrida Buxoro amirligida siyosiy va ijtimoiy hayotda muhim o'zgarishlar yuz bergan. Ayniqsa, ichki boshqaruvni tartibga solish, viloyatlar ustidan nazoratni kuchaytirish hamda diniy-ma'rifiy muassasalarga e'tibor qaratish uning siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan. Shu sababli Amir Haydar faoliyatini o'rganish Buxoro amirligi tarixini chuqur anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Natija va muhokama. Amir Shohmurod vafotidan so‘ng taxtga uning o‘g‘li amir Haydar keladi. Ahmad Donish u haqida shunday ma‘lumotlarni beradi. “Uning podsholik taxtiga o‘tirishi 1800 yil yakshanba, rajab oyining 14 da bo‘lib, uning hukmronlik davrida amirlarning ko‘pchiligi unga qarshi muxolifat va adovatda edilar. Buxoroga tobe qal‘alar va el-ulus orasida buzg‘unchilik kuchaydi, elatlar o‘rtasida urush va janjallar uzluksiz davom etdi.

Bu podsho yoshlik davridayoq din ilmini chuqur o‘rganish, Qur‘onni yod olish, kunora ro‘za tutishni ahd qilgan bo‘lib, bu uch majburiyatni o‘z ahdiga muvofiq ado etardi” deydi.[1]

Amirlikda yosh Sayyid Haydarga qarshi dastlabki qo‘zg‘alon hukmronligining birinchi yilidan boshlandi. Unga qarshi kurash boshlagan dastlabki kishi O‘ratepa hokimi Bobobek parvonachi hisoblanadi. Bobobek parvonachi Jizzaxni qo‘lga kiritgandan so‘ng, shahar hokimi, ya‘ni amir Haydar singlisining eri Muhammad Yusufxo‘jani asir oldi. Bu voqeadan xabar topgan Kattaqo‘rg‘on hokimi Muxammad Xo‘ja o‘z o‘g‘li Muhammad Yusufni ozod kilish uchun katta qo‘shin bilan Jizzaxga keldi va Bobobek parvoyachi qo‘shinlari bilan jang qilib, uni besh yuz lashkari bilan birga asirga oldi. Ularning ba‘zilarini qatl etdi, qolganlarini Bobobek parvonachi va uning onasi hamda kichik o‘g‘li Qosim Xo‘ja hamrohligida Buxoroga jo‘natdi. [2] Yosh amir ularni avf etadi va ularni ozod qilishga buyruq beradi.

Muhammad Aminxo‘ja naqib amir Sayyid Haydarning bu ishidan ranjib, amir Haydarning akalari Umarbiy va Fozilbiylarni Shahrisabzdan Kattaqo‘rg‘onga taklif etdi va ulardan harbiy yordam so‘raydi. Amir Haydarning akasi Abdulla dodxoh Shahrisabziy boshchiligidagi ming nafar lashkarni yordamga yubordi. Muhammad Amin naqib amir Haydarning akalari Umarbiy va Fozilbiyni Panjshanba viloyatida, o‘g‘li Qosim Xo‘jani Kattaqo‘rg‘onda qoldirib o‘zi Samarqandni qo‘lga kiritish uchun uni qamal qilishga kirishdi.

Samarqandni qamal qilinganligidan xabar topgan amir Sayyid Haydar Xolmo‘minxonbiy parvonachi va Muhammad Aminbiy qalmoqni o‘n ming ko‘shini bilan o‘z ukasi Samarqand hokimi Husaynbekka yordam berish uchun jo‘natdi. O‘zi esa Panjshanba viloyatiga hujum qilib, birodarlari Umarbiy va Fozilbiyni hamda jangda ishtirok etayotgan ularning o‘g‘illarini, jami ikki yuz kishini qatl etdi va Muhammad Amin naqib ustiga yurish boshladi. Muhammad Amin naqib bundan ogoh bo‘lib, Samarqandni tashlab Shahrisabzga qarab qochdi. Amir Sayyid Haydar Kattaqo‘rg‘on va Yangiqo‘rg‘onni ishg‘ol qilib, so‘ng Samarqandni egalladi hamda “Ko‘ktosh” deb ataladigan Amir Temur Ko‘ragon qasriga kirdi. Bir necha kun Samarqandda bo‘lib, so‘ngra ukasi Husaynbekni Buxoroga jo‘natdi va bir vaqtlar otasining xizmatkori bo‘lgan Davlat devonbegini G‘uzordan chaqirib olib, Samarqand hokimi etib tayinladi hamda unga qushbegi mansabini berdi. O‘ratepa hokimi Bobobek parvonachiga iltifot ko‘rsatib, uni o‘z qizi bilan birga Samarqandga yubordi. Xo‘jand hokimi Bekmurodbiy valad Xudoyorbiyni o‘ziga ya‘ni amir Haydarga tobe deb e‘lon qildi. Shu vaqtda Qo‘qon xoni Olimxon bin Norbo‘tabiy Xo‘jandga hujum qilib, uni o‘z tasarrufiga kiritdi va Bekmurod Xo‘janddan qochib O‘ratepaga, akasi Bobobek huzuriga kelib shu yerda panoh topdi. Amir Haydarning bu kabi islohotlaridan so‘ng shuni tushinishimiz mumkinki, u otasi davridagi hokimlarini almashtirib o‘zining yaqin kishilarini keltiradi.

Bekmurod tunda o‘z ukasi Bobobekni o‘ldirib, O‘ratepa hukmdorligini o‘z qo‘liga oldi va Xo‘jandni olishda yordam so‘rab amir Haydarga murojaat qildi.

Bekmurodbiy amir Haydar askarlari tomonidan asir olindi. Amir Haydar uni Bobobek parvonachi farzandlari qo‘liga topshirdi va ular Bekmurodbiyini qatl etib otalari xuni uchun qasos oldilar. Amir Haydar O‘ratepani fath etib, mulla Ernazarni hokim etib tayinladi.

Bu yurushlar haqida biz Mirza Salimbekning “Kashkuli Salimiy tavorixi muttaqadimin va muttaaxirin” asarida quyidagilqrni bilib olishimiz mumkin: “...Amir Ma’sumni vafotidan keyin O‘ratepa hokimi Bobobek parvonachi Jizzaxni muxosara qildi. U yerning hokimi Muhammad Yusuf Xo‘ja Atoyi bo‘lib amir Haydarning singlisi uning qo‘lida edi. Bu xabarni Muhammad Amin xo‘ja Naqib - Kattaqo‘rg‘on hokimi eshitib, o‘z farzandini muxlisi sifatida katta lashkar bilan Jizzaxga borib Bobobek parvonachini mag‘lub qilib, besh yuz nafar uning askarlaridan asir olib Kattaqo‘rg‘onga olib kelib, ba‘zilarni o‘ldirib, boshqalarni otasi hamroligida va kichik o‘g‘li Qosimxo‘ja bilan Buxoroga yubordi. Amir Haydar asirlarni ozod qilib, uning otasi va o‘g‘liga mehribonlik qilmay ularni uzatdi. Bu vajdan Naqib ozurdaxotir bo‘lib Shahrisabzga odam yubordi. Umarbiy va Fozilbiylardan amirga qarshi urushida madad so‘radi. Ular Abdullo dodxoh Shahrisabzlik hamroligida bir ming nafar lashkar yubordilar. Umarbiy va Fozilbiyini Panjshanba va Qosim Xo‘ja o‘z o‘g‘lini Yangiqo‘rg‘on va Xitoy qipchoqqa hokim qilib, amir Haydarga bog‘i (dushman) bo‘ldi. [3]

Quyidagi ma’lumotlar ham shuni tasdiqlaydiki, Buxoro amirligida XIX asrning o‘zidan boshlab, mamlakatda notinchliklar, ichki tarqoqliklar boshlangan. Bunga asosiy sabab viloyat hokimlarining mustaqillikka intilishi, amir Ma’sumdan keyingi hukmdorni tan olishni istamasliklari sabab bo‘ladi. Aynan mana shu kabi voqealarni Ahmad Donish ham aytib o‘tgan.

Ahmad Donishning fikriga ko‘ra bu kabi urushlarning sababini risolasida shunday yozadi: ulamolarga iltifoti va inoyati yuqoriligi amirlarning g‘ashiga tegardi. Podshodan ortiqcha maosh va sovg‘alar olish uchun elatlarni unga qarshi qo‘zg‘atib turar edilar. Chunki hamma joyda tinchlik bo‘lsa, podshoh hech vaqt xonaqoh va madrasadan tashqariga chiqmas, ulamolardan boshqalarga iltifot qilmas edi. Shuning uchun har uch oy, olti oyda goh-u viloyatda, goh bu viloyatda isyon uyushtirib amirni bu hududlarga askar tortishga undar edilar. Shu tariqa, qo‘shimcha maosh va tanho (iqto) olar edilar. [1] Urushning asl mohiyati ham amaldorlarning boylik talab etishi bo‘lgan, buning oqibatida soliqlar oshishi, aholining majburiy safarlarga, mehnatlarga jalb qilish kabi tadbirlar bo‘lgan.

Amir Haydar haqida ma’lumot beruvchi yana bir manba Mirzo Abduazim Somiyning “Mang‘itlar sulolasi tarixi” asaridir. Bu asarda yozilishicha “Amir Haydar ilmli, saxovatli va adolatli hukmdor edi. U barcha fanlardan yetarlicha bilim oldi. Mashg‘ulotlar kunlarida davlat ishlari bilan band bo‘lishiga qaramay kengashi, u ilohiyot talabalari dars o‘tgan.

Uning shogirdlari davrasidagi maruzasi esa mingdan kam odam bo‘lmagan. 1216 yilda (1801-1802), otasi vafotidan keyin u o‘tirdi taxt. Uning hukmronligi davrida shariat keng tarqalgan edi tarqaldi, uqubatga uchragan va uyi vayron qilgan huquqlari himoya qingan odamlar tinch-totuv yashagan. [4] Mirzo Abduazim Somiyning ham yashagan davri amir Haydar davriga to‘g‘ri kelmasa ham uning davrini haqida eshitgan bo‘lishi mumkin. Ammo Mirzo Somiydan boshqa tarixchi olimlar ham amir Haydarning hukmronlik davri va uning shaxsiyati haqida iliq fikrlar bildirishgan .

Amir Haydar haqida vengriyalik olim Herman Vamberi ham biroz bo'lsa ham o'z fikrlarini qoldirib ketgan. Uning fikriga ko'ra amir Haydar oz bo'lsa ham otasiga mos farzand bo'lishga harakat qilgani, diniy ilmlarda otisidan kam bilmagani va shuningdek yurtni shariatga muvoffiq boshqargani keltirib o'tadi. [5]

Amir Haydar hukmronlik qilgan davrda harbiy yurishlar va g'animlarni bartaraf etish bilan bir qatorda dars berish va ulamolar bilan suhbatlar munozara uyushtishga ham fursat topgan. Amir dunyo lazzatlaridan voz kechib ro'za tutar, iftori han ortiqcha bo'lmagan. U haqida bir so'z bilan aytganda shariat buyurganiga qanoat qilar edi. Amir ortiqcha sarf xarajatlarga yo'l qo'ymazligini, shuningdek davlat boshqaruvini islomga asoslaganligini bilishimiz mumkin.

Marv hokimi Dinnosirbekni amir Haydar doimo Buxoro taxtini egallashga da'vogar bo'lgan raqobatchi deb bilar edi. Bir safar uni Buxoroga chaqirtirganda, Dinnosirbek akasiga ishonmagan va Eronga, Fathalishoh (1797–1834) huzuriga ketgan. Keyinchalik, u Xorazm xoni Eltuzarxon (1804–1806) qutqusiga uchib, 1804-yil akasiga qarshi bosh ko'taradi va mag'lubiyatga uchraydi. Bu voqeadan so'ng Eltuzarxon talonchilarini yuborib, bir necha bor Buxoro tumanlarini talon-toroj qildi. Eltuzarxonning maqsadi o'z odami bo'lgan Dinnosirbekni Buxoro amirligi taxtiga chiqarish va bu orqali amirlikni o'z nazoratiga olish bo'lgan. Oxir-oqibat, 1806-yilda Amir Haydar Niyozbek parvonachini yigirma ming suvoriy bilan Xorazm tomon yubordi. Xorazm xoni qo'shin bilan Amudaryodan o'tib, Buxoro qo'shini bilan jang qildi. Bo'lib o'tgan qattiq jangda xorazmliklarning ko'pchiligi shikast topib, aksari daryoga g'arq bo'ldi. Qolganlarini Eltuzarxonning uch birodari bilan birga asir qilib Buxoroga olib keldi.

Amir Haydar boshqaruviga qarshi uning ukasi Dinnosirbek 1821-yilda 4000 nafar lashkar bilan Chorjo'yga hujum qiladi. Amir Haydar tomonidan sarkarda Niyozbek parvonachi boshchiligida yuborilgan qo'shin Dinnosirbekni mag'lubiyatga uchratib uning lashkarlaridan 2000 nafarini halok etdi va asirga oldi. Dinnosirbek o'z oilasi bilan Mashhadga qochdi. Dinnosirbek va Niyozbek parvonachi o'rtasidagi asosiy jang Marv ostonasida bo'lib o'tadi va jang davomida Marvni suv bilan ta'minlab turgan to'g'on buzib tashlangan va marvliklar asosiy suv manbasidan uzilib qolgan edi. Marv shahrida to'rt yil hokim bo'lmaydi. Urushdan so'ng amir Haydar Erlaqabbiyni ikki yuz turkman xonadoni bilan birga Marvga yuborib shaharning vayron bo'lgan joylarini va ariq to'g'onlarini obod qilinishini buyuradi. Erlaqabbiy Marvda o'n yil davomida hukmronlik qiladi.

1821–1825-yillarda Amir Haydar hukmronligi davrida yana bir yirik qo'zg'olonlardan biri Miyonqolda ko'tarilgan, amir qo'zg'olon ko'targan xitoy-qipchoqlariga qarshi faol kurash olib bordi. 1821 yilda boshlangan bu qo'zg'olonning tashqi sababi quyidagi holat edi. Marvda harbiy safarbandlik xizmatini amalga oshirish uchun Buxoro hukumati muntazam ravishda u yerga Miyonqol o'zbeklarining har bir qabilasidan (firka) navbatma-navbat yig'ilgan 500 tadan qo'shin yuborib turdi. Yuborilgan otryad uch oy xizmat qildi, shundan so'ng u almashtirildi. [6]

Samarqanddan Miyonqolgacha bo'lgan yerlar bu jamoalarning makoni bo'lib, ular qariyb besh ming uylik aholi bo'lgan. Ayrim vaqtlarda amir Haydarning odamlaridan ularga zulm va zug'um o'tgan edi. Shu sababdan xorazmliklar bilan bo'lgan muvaffaqiyatsiz janglar natijasida fursatni g'animat bilib, Kattaqo'rg'on, Yangiqo'rg'on va Chelak qal'asini bir kunda qo'lga kiritib oldilar.

Samarqand va Yangiqo'rg'on hokimi Davlat qushbegini yaqinlari bilan Yangiqo'rg'on da asir oldilar. Ayoq yaqinlarini Kattaqo'rg'on da ushladilar. Bu xabarni eshitgan amir sarosimada yo'lga tushib, o'z o'g'li Nasrulloni oldinroq yuborib, o'zi ham urganchliklar kelayotganiga qaramay o'g'li ortidan yo'lga chiqdi.[7]

Nasrullo olg'a yurib, Kattaqo'rg'on ni egalladi va qariyb ikki yuz xitoyni asir oldi. Nasrullo ularning ba'zilarini qatl ettirib, otasi ortidan yetib oldi va yigirma besh kun davomida Kattaqo'rg'on da bo'ldi.[8] O'ratepa hokimi Otaliqbek yetib kelib unga qo'shilgach, u yerdan ko'chib Samarqandga bordi. U yerdan qaroqalpoqlarni bo'ysundirishga azm aylab, Chipor qal'asi tomon yo'l oldi. Qoraqalpoqlar qariyb yigirma ming uylik aholi bo'lib, xitoy-qipchoqlar bilan ittifoq edilar. Nasrullo borib ularning qal'asini egalladi. Shundan keyin Nasrullo qipchoqlar ustiga yurish qildi va Chelak qal'asini egalladi. Ushbu voqealardan keyin amir Haydar Samarqandga kelib, o'g'li Mir Husaynni hokim etib tayinladi va o'zi Buxoroga qaytdi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, amir Haydar davrida mamlakat osoyishtalikka erishgan, amirlikda garchand muxolif kuchlar payda bo'lgan bo'lsa ham amir ular bilan yo kelushuv sulhi imzolagan, yo ularning harakatini qilich bilan bostirgan. Shuningdek, amir davrida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan aholining holatini ijobiy tamonlarga o'zgartira ilgan hukmdor sifatida nom qoldirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmad Donish. Risola yohud mang'itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi.— TO'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2014.-B.29.
2. Sayyid Mansur Olimiy. Buxoro – Turkiston Beshigi. — Buxoro: “ BUXORO” . 2004. – B.42.
3. Mirza Salimbekning “Kashkuli salimiy tavorixi muttaqadimin va muttaaxirin”. –Buxoro: BUXORO. 2003. —B.292.
4. Мирза Абдал Азим Сами. Тарихи Салатини-и мангитийа (История мангытских государей). / Пред. Л.М.Епифановой. – М.: Вост. литер., 1962. —С.61.
5. Vamberi “Buxoro yohud movoraunnahr tarixi” II jild .:—Т. “INFO CAPITAL GROUP”, 2019.—B.161
6. Иванов “Востание Китай-Кипчаков В Бухарском Ханстве 1821 - 1825 гг.” — Ленинград,1937. –С.58.
7. Zamonov. A. “Buxoro amirligi tarixi”.:—Т.:TAMADDUN,2022. –B .58.
8. Sultonova Kumush. Mang'itlarning shakllanishi va siyosiy maydonga kelishi //“Pedagogik akmeologiya” xalqaro ilmiy-metodik jurnali, 11(28)2025. – B 80-86